

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)
Каланова Сабохат Мурадovна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. профессор (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
2. Karimov Bobir JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
3. Mamatov Normurat IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
4. Rasulov Abdimumin SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
5. Xusanova Hayriniso IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
6. Abduxalilov Abdullo NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
8. Abdullayev Akmal O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
9. Хасанова Мавлюда СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
11. Алимухамедова Нодира ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
12. Tolipov Abdug‘affor VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
13. Berdimuratov Marat YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

14. Хамиджонов Умиджон	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
15. Ixtiyarov Farxod	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
16. Хасанова Мавлюда	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
17. Radjabova Aziza	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
18. Kalanova Sabohat	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
19. Ixomjon Xudayarov	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
20. Tagaymuratova Gulchehra	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
21. Jabborov Jaxongir	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
22. Ixtiyarov Farxod	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
23. Xasanov Sharofidin	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
24. Nurulloev Shahriyor	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
25. Аликариев Нуриддин	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
26. Alikariyeva A'loxon	
OLIIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Ilhomjon Xudayarov,

University of Business and Science,

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

ilhom.xudayarov@mail.ru

ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099571>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada global o'zgarishlar makonidagi asosiy muammolardan biri etnomadaniy migratsiya jarayonlarining sezilarli darajada mamlakatlar bo'yicha keng ko'lamda oshganligi etnomadaniy munosabatlar transformasiyalashuvi va integrasiyalashuvi tendensiyalari, xalqaro munosabatlarda etnik o'ziga xoslikning o'zgarishi, millatlararo hamjihatlikning turli ijtimoiy, hududiy va etnik guruhlarining etnomadaniy aloqalari **determinant sifatida** sotsio-madaniy dinamikasiga **bevosita bog'liqligini ko'rsatmoqda**. Shuningdek, etnomadaniy integratsiya jarayonida individual evolyusion moslik qobiliyatini rivojlanishi, ya'ni inson yangi madaniy muhitga lingvistik qobiliyati orqali tez moslashishi, o'z navbatida, etnomadaniy integratsiya va subyektiv farovonlik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlaydi hamda ushbu jarayondagi ichki ma'naviy dunyo qarash omillarning kreativlik ahamiyatini yanada oshiradi. Madaniy integratsiya o'lchami ko'rsatkichlarida turli kontekstli yumshoq migratsiya toifalari va madaniy integratsiya nazariyalarining funksional nazariy konseptual asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: etnomadaniy migratsiya, yumshoq migratsiya, etnomadaniy mobillik, madaniy identiklik, madaniy kreativlik, subyektiv identiklik, madaniy kompetensiya, madaniy marginallik, evolyusion moslashuv.

Илхомжон Худаяров,

University of Business and Science

Преподаватель кафедры общественных наук

ilhom.xudayarov@mail.ru

ТЕНДЕНЦИЯ К МЯГКОЙ ЭВОЛЮЦИОННОЙ АДАПТАЦИИ В ПРОЦЕССАХ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ

АННОТАЦИЯ

Одной из основных проблем в сфере глобальных изменений является значительное увеличение этнокультурных миграционных процессов в разрезе стран, тенденции трансформации и интеграции этнокультурных отношений, изменение этнической идентичности в международных отношениях, укрепление межнационального согласия в различных социальных, территориальных и этнических группах этнокультурные связи напрямую зависят от социокультурной динамики как детерминанта. Кроме того, развитие

способности к индивидуальной эволюционной адаптации в процессе этнокультурной интеграции, то есть стремительная адаптация человека к новой культурной среде через его лингвистическую способность, укрепляет взаимоотношения между этнокультурной интеграцией и субъективным благополучием, а также способствует развитию внутреннего духовного мировоззрения творчество. В показателях размера культурной интеграции проанализированы функциональные теоретические концептуальные основы различных контекстных категорий мягкой миграции и теории культурной интеграции.

Ключевые слова: этнокультурная миграция, мягкая миграция, этнокультурная мобильность, культурная идентичность, культурная креативность, субъективная идентичность, культурная компетенция, культурная маргинальность, эволюционная адаптация.

Ilhomjon Khudayarov,
University of Business and Science,
Lecturer of the Department of Social Sciences
ilhom.xudayarov@mail.ru

COMPATIBILITY TREND IN THE INTEGRATION PROCESS OF THE EVOLUTION OF THE SOFT ETNOMADANIY

ABSTRACT

One of the main problems in the field of global changes is a significant increase in ethnocultural migration processes in the context of countries, trends in the transformation and integration of ethnocultural relations, changes in ethnic identity in international relations, strengthening interethnic harmony in various social, territorial and ethnic groups, ethnocultural ties directly depend on sociocultural dynamics as a determinant. In addition, the development of the ability to individual evolutionary adaptation in the process of ethnocultural integration, that is, the rapid adaptation of a person to a new cultural environment through his linguistic ability, strengthens the relationship between ethnocultural integration and subjective well-being, and also contributes to the development of an internal spiritual worldview of creativity. In measures of cultural integration size, the functional theoretical conceptual underpinnings of various contextual categories of soft migration and cultural integration theory are analyzed.

Key words: ethnocultural migration, soft migration, ethnocultural mobility, cultural identity, cultural creativity, subjective identity, cultural competence, cultural marginality, evolutionary adaptation.

KIRISH

Etnomadaniy integratsiya migrantlarda turli madaniyatlarni targ'ib qilish va mahalliy aholi o'rtasida stratifikatsiyalashtirilgan xulq-atvor me'yorlarining individual o'zaro korrelyatsion bog'liqligini va ijtimoiy xulq-atvorni rag'batlantiradigan obyektiv va subyektiv qonuniyatlarining sotsio-dinamik xususiyatlarida evolyusion moslik, etnomadaniy integratsiya va subyektiv identiklik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aloqadorligini mo'tadillashtiruvchi reguliyator omillar ta'sirida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, agar individual darajada madaniy ishonch va kreativlik yuqori bo'lsa, madaniy integratsiya subyektiv farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir to'g'ridan-to'g'ri hamda barqaror bo'lishi mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi, mamlakat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish, ularga homiylik ko'rsatishni bundan buyon ham kafolatlaydi va barcha choralarni ko'radi" [1], degan fikrlari, milliy munosabatlar barqarorligi borasida YuNESKO bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" qabul qilinib, insoniyat uchun etnik komponentlarga nisbatan bag'rikenglik bilan ajralib turadigan o'ziga xos madaniy tipning yaratilishi hozirgi davrning majburiyati ekanligi ta'kidlanadi. Migratsiya jarayonlarida yangi madaniy integratsiya modellarini evolyusion mosligi va

subyektiv mohiyatini o'rganish, tartibga solishning konseptual asoslarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

METODOLOGIYA

Migratsiya jarayonlarining etnomadaniy integratsiyasi, evolyusion moslik va subyektiv farovonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni tahlil qilishda interdissiplinar yondashuv, sotsiologiya, ijtimoiy psixologik, madaniy antropologik hamda evolyusion nazariya elementlarini o'zida mujassam etgan metodologik usullarga asoslangan. Mavzuning nazariy va sotsiologik jihatdan tadqiq etishda, J.Berriy subyektiv farovonlik konsepsiyasi, E.Dienner ijtimoiy identiklik nazariyasi va X.Toflarning madaniy evolyusiya va moslashuv nazariyalariga asosan taxlil qilingan. Ushbu yondashuvlar migrantlarning madaniy resurslarni o'zlashtirish, yangi ijtimoiy muhitga adaptatsiya va subyektiv farovonlikni shakllantirish jarayonlarini kompleks tahlil qilish imkon beradi.

ASOSIY QISM

Ko'p madaniyatli jamiyatlarda madaniy tafovutlar va normalar o'rtasidagi qarama-qarshilik migrantlar uchun muayyan qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi. Bu kabi holatlarda migrantlar bir vaqtning o'zida bir necha madaniy muhitni qabul qilish va turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot o'rnatishga harakat qiladilar. Ular uchun etnomadaniy integratsiya nafaqat adaptatsiya vositasi, balki o'z shaxsiy identikligini qayta shakllantirish va jamiyatda faol ijtimoiy subyekt sifatida qatnashish imkoniyatini ham yaratadi.

Shu ma'noda, madaniy integratsiya jarayoni individual evolyusion moslik qobiliyatini rivojlantiradi, ya'ni inson yangi madaniy muhitga nafaqat moslashadi, balki unda faol ijtimoiy va psixologik ishtirokchiga aylanadi. Bu holat esa, o'z navbatida, madaniy integratsiya va subyektiv farovonlik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlaydi hamda ushbu jarayondagi ichki omillarning madaniy mobillik va kreativlik yuqori darajada bo'lishi ijtimoiy aloqalar ahamiyatini yanada oshiradi.

Bu jarayonda, migrantlarning evolyusion tayyorgarligiga, masalan, ularning yangi ijtimoiy muhitga moslashish va adaptatsiya qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Turli xildagi madaniyatga ega bo'lgan migrant guruhlari mezbon mamlakatning madaniy jihatlari va xulq-atvorini tushunish uchun original bo'lgan madaniyat, e'tiqod va madaniy yaqinlashuv, akkulturatsiya darajalari, madaniy diversifikatsiya hamda ularning farqlari jamiyatlarda bir vaqtning o'zida mavjud bo'lmasligini kuzatish mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy-madaniy transformatsiya oqibatlarini migrantlarni beqaror hayot davriga olib kiradi, bunda ularning hayotiy tajribalari va ular saqlab qolishga intilayotgan madaniy e'tiqodlar o'zgarishiga olib keladi [2].

Bundan tashqari, madaniy koddan muayyan madaniyatning semantik tarkibiy qismlarini o'rganish, ushbu madaniyatga ega bo'lgan odamlar dunyoga nisbatan baholash mezoni va talablari tizimini ham yaratadi. Subyektiv farovonlik va madaniy atributlar aloqalarini madaniy defragmentatsiya deb atash mumkin. Bu jarayonda global ijtimoiy mexanizmlarning tizim yoki muayyan elementlar to'plami sifatida o'ziga bo'lgan munosabatini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Bilish nazariyasida tafakkurning muhim elementi, ijtimoiy hayot va madaniy rivojlanish xususiyatlarini belgilovchi omillardan biri sifatida evolyusion moslik va subyektiv farovonlik etnomadaniy integratsiya amaliyotining yangi strategiyalarini yaratishga imkon beradi.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy transformatsiya migrantlarni doimiy moslashish fitnes muhitiga qamrab oladi, natijada etnomadaniy integratsiya va adaptatsiya jarayonlari bilan tanish bo'lmagan migrantlarga nisbatan bu holat evolyusion moslashishga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi. Evolyusion moslik o'ziga xos xususiyatlar uchun evolyusion tanlov, ya'ni fenotipik xulq-atvor yuqori darajada mavjud bo'lmasa ham, migrantlar o'z milliy-madaniy moslashish xususiyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish transformatsiya imkoniyatiga ega bo'ladilar [3]. Shu bilan birga, madaniy konfiguratsiya va ustanovkalariga moslashish adaptatsiyasini nazarda tutadi, madaniy integratsiyaga adaptiv yondashuvda migrant madaniy integratsiyasining evolyusion sifatini ta'minlab beradi. Tahlillarga ko'ra, evolyusion moslik ko'pincha turli ijtimoiy guruhlar bilan kognitiv, ya'ni anglangan uyg'unlikni rivojlantirish orqali psixologik jihatdan moslashishni talab qiladi [4]. Masalan, bugungi kunda evolyusion moslik xulq-atvor e'tiqodlarini shakllantiradi. Migrantlar lingvistik qobiliyati orqali jamiyatga tez moslashadi, bu esa keyinchalik qabul qiluvchi

mamlakat fuqarolari o'rtasida migrantlarga nisbatan ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni rag'batlantirishi mumkin. Evolyusion moslik yondashuvi shuning uchun ham madaniy integratsiyani harakatga keltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, evolyusion moslashuv migrantlarning madaniy ishonchi, kreativligi va tadbirkorligini ta'minlaydi, bu nafaqat migrantlarning subyektiv farovonlik darajasini, balki migrant yashayotgan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi hamda madaniy integratsiyani ham oshiradi.

Migrantlarning dunyoqarashi va tafakkur tarzidagi o'zgarishlarda madaniy vositalar majmui nazariyasi, ya'ni moddiy va ma'naviy resurslar orqali tabaqalashtirilgan muhitda moslashuvchan qiymatga ega bo'lgan kreativlik muhim manba sifatida etnomadaniy integratsiyaga o'zaro korrelyatsion bog'liqligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, evolyusion moslik migrantlarning subyektiv farovonligini yaxshilaydi, inson populyatsiyasining rivojlanishini rag'batlantiradi, shu bilan davlat va fuqarolik jamiyati institutlari bardoshlilikini oshiradi. Biroq, Darvinning evolyusion jarayonlari migrantlarni o'zgaruvchan va murakkab muhitda moslashuvchanlik darajasini saqlab qolishga qanday olib kelishi mumkinligi hali ham adabiyotlarda to'liq yoritilmagan. Madaniy integratsiya va evolyusion moslik o'rtasidagi munosabatni aniqlashda migrantlarning madaniy resurslarini to'plash va turli vaziyatlarda qanday konfiguratsiya qilish yuzasidan ularga tanlash imkoniyatini beradi.

Migrantlarning evolyusion moslashish jarayoni kuchayishi transformatsiyaga moslashishini izohlaydi, chunki o'zgaruvchan muhitda maqbul bo'lgan xususiyatlarni tanlash, yangi identiklikni yaratish uchun adaptatsiya. Shu boisdan, ijtimoiy kapital nazariyasining tahlillariga ko'ra, evolyusion funktsiya, madaniy daxldorlik, integratsiya va subyektiv farovonlik hamda adaptiv ko'nikmalar o'rtasidagi munosabatlarning o'rganilgan darajalari bo'lsa ham bu tushunchalar yetarlicha yoritilmagan.

Etnomadaniy integratsiyaning evolyusion modelini ishlab chiqishda ijtimoiy me'yorlar va umumiy shaxsiy qadriyatlar qabul qilinishi jarayonida geterogen guruhlar o'rtasidagi tadbirkorlik faolligini oshiradi, shu bilan birga, raqobatbardosh davlatlarning imijini tashkil etuvchi diversifikatsiyalashgan va institutsional birlikni mustahkamlashga asos bo'ladi [5].

Biroq, ham empirik, ham konseptual tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, migrantlar madaniy integratsiya mantig'iga zid bo'lgan doimiy muammolarga duch kelishi kuzatilmoqda. Migrantlarning ijtimoiy, madaniy, psixologik va iqtisodiy jarayonlardagi hayot modellarining transformatsiyalashuvi shuni ko'rsatdiki, ularning shaxsiy manfaatlari va o'zlikni anglash hissi emotsional distresslari darajasida muhim omil hisoblanadi [6]. Iqtisodiy modellardagi transformatsiyalar nuqtai nazaridan olganda, daromad yoki boylikning oshishi kabi kutilgan natijalarga erishgan bo'lsa ham migrantlarning subyektiv farovonligini mantiqiy ravishda oshirmagan.

Migratsiya masalalarida daromadning biroq o'sishi kuzatilsada, psixologik tarafdin ijtimoiy hayotdagi eng muhim stressli voqealardan biri bo'lib, madaniy muammolar subyektiv farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ayrim migrantlar iqtisodiy holati yomonlashishiga olib keladi. Migrantlar til barerlari, notanish axloqiy normalar, jumladan, ijtimoiy, oilaviy va boshqa qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini yo'qotish, ba'zilar esa kamsitish kabi bir qancha stress omillariga duch kelishadi.

Shu bilan birga, migrantlarning madaniy institutlar va birlashgan submilliy guruhlariga, etnik yoki diniy jamoalarga singib ketganligi sababli ijtimoiy izolyatsiya holatlarini ham keltirib chiqaradi.

Chunki, madaniy integratsiya jarayonlarida ijtimoiy-psixologik bosimlar, madaniy farqlar, til to'siqlari va ijtimoiy tanazzul holatlari subyektiv farovonlikka salbiy ta'sir qiladi [7].

Natijada, migrantlar madaniy integratsiyaga yumshoq moslashuvchan va adaptiv yondashuvga bog'lanib qolishi, bu esa madaniy konvertatsiyaga ta'sir qilishdan tashqari ijobiy natijalarga erishish imkoniyatlarini keltirib chiqaradi. Migrant guruhlarining jamiyatga innovatsion g'oyalarni hamda mehnat bozorini rivojlantirish uchun hissa qo'shish ehtimoli ko'proq bo'lganligi sababli ular qoniqish, tolerantlik va baxtililikni ifodalovchi, ijtimoiy umidlarga xizmat qiluvchi madaniy integratsiyani yanada oshirishga xizmat qiladi. Yuzaga kelgan madaniy integratsiya va subyektiv farovonlik o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, shuningdek, subyektiv farovonlikning mohiyati bevosita munosabatlar mediatorlik ta'siriga ega bo'lib, identiklikning

subyektiv mohiyati darajasi yuqori bo'lganda, identiklikning subyektiv mohiyati orqali madaniy integratsiyaning subyektiv farovonlikka bilvosita ta'siri ham yuqori bo'ladi.

Shuningdek, empirik kontekstda migrantlarning madaniy integratsiya va subyektiv farovonlik tadqiqotlari sohasidagi evolyusion moslik modellar dizayni va subyektiv mohiyatini o'rganish bo'yicha tadqiqotning yangi yo'nalishlariga zamin yaratadi.

Birinchidan, madaniy integratsiyaga nisbatan moslashuvchan yondashuv orqali madaniy resurslarni o'zlashtirishi va bu resurslardan turli vaziyatlarda unumli foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishi orqali ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda ko'proq foyda ko'rishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ikkinchidan, migrantlarning internatsional o'zaro hamkorlik kompetensiyasiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, evolyusion moslik va madaniy resurslar, ijtimoiy amaliyotlar bilan bir qatorda, madaniy integratsiyaning subyektiv farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali zamon va makonda rivojlanadi.

Uchinchidan, integratsiyalashgan individual qadriyatlar majmui insonning ma'naviy dunyoqarashi jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlarga madaniy jihatdan farqli o'laroq jamiyatlarning standart yondashuviga madaniy integratsiya moslashuvchan bo'ladi hamda evolyusion moslikni ma'lum darajada nazorat qiladi.

Migrantlarning ichki ma'naviy dunyoqarashlari hayot strategiyalarini shakllantiradigan odamlarning dunyo haqidagi asosiy e'tiqodlarini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, etnomadaniy integratsiya jarayonlar va turli yondashuvdagi konsepsiyalar, e'tiqodlar, in'ikoslar, hikoyalar, kuzatuv ma'lumotlari, ijtimoiy me'yorlar, til va marosimlar kabi hayotning ajralmas ijtimoiy hayot amaliyotlarini birlashtiradi [2].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xorijda ishlash uchun eng asosiy masala sifatida ingliz tilini (48,3%), keyingi o'rinni rus tilini bilish (47,8%) egallashini ko'rsatdi. Xitoy va koreys kabi tillarning muhimligi kamroq ko'rsatkichni ifodalaydi. Asosan ingliz va rus tillari xorijda ishlash uchun muhim tillar bo'lib qolmoqda. Bu mehnat migratsiyasiga pragmatik yondashuv va xalqaro mehnat bozorlariga qaratilganlikni aks ettiradi. Bundan tashqari, turli millatlar vakillariga ijobiy munosabat boshqa mamlakatlar madaniyati hamda tajribasini ijobiy qabul qilishni ifodalaydi.

Lekin, "boshqa tillar" toifasida arab, turk va o'zbek tillarini aytib o'tiladi, ba'zi mamlakatlarda maxsus tillarga bo'lgan ehtiyojni batafsilroq ko'rib chiqish kerak, chunki bu tanlov ham mintaqa yoki kasbga bog'liq ahamiyatli bo'lishi kuzatilmoqda.

Aksariyat respondentlar o'z xalqining urf-odatlarini juda ham qadrlab, ularni o'ziga xoslikni saqlash uchun muhim deb hisoblaydilar. Migrantlarning katta qismi zamonaviy sharoitlarda yangi urf-odatlarga duch kelishi yoki hayotga zamonaviy qarashlarga qarama-qarshi bo'lishi ehtimoli borligini ham anglatadi. Bu natija madaniy merosni hozirgi zamon talablariga moslashtirish orqali uni saqlab qolish uchun milliy diaspora fanini kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Notanish sotsiumga kirgan migrantlarda yuz berayotgan voqealarga ta'sir qilish va qarorlar qabul qilishda zarur hamda qimmatli manbalarni olish uchun madaniy jihatdan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, yot ijtimoiy madaniyat va madaniy resurslarga moslashishda biroz moslashuvchanlikni ta'minlashga harakat qilish dolzarbligini sezilarli darajada kuzatish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 77% migrant-respondentlar milliy urf-odat va bayramlarga moslashuvini, yangi do'st orttirishi va xalqlarda yangi urf-odatlar paydo bo'lishini mahalliy madaniyat va urf-odatlarga yuqori daraja tanlovidagi harakatlar amplitudasining keng tarqalgan shakli hisoblanadi [8]. Migrantlarning ko'pchiligi urf-odatlarini bilish va ularga amal qilish milliy o'ziga xoslikni saqlash uchun muhimligiga ishonadi. Lekin, ishtirokchilarning bir qismi qadimgi urf-odatlar zamonaviy qarashlarga qarama-qarshi bo'lishi mumkinligini ham qayd etishgan holda, ba'zi ishtirokchilar globalizatsiya sharoitida urf-odatlar unutilishi mumkin, deb hisoblashadi.

Ayni vaqtda 23% respondent ular uchun mahalliy odatlarga ko'nikib ketish qiyin bo'lishini qayd eshitgan, madaniy integratsiya jarayonlariga bir qancha bosimlar bo'lishini ham aytib o'tishgan. 90,7% respondentlar ishlayotgan mamlakatlarida yangi do'st orttirgani va ijtimoiy faolligi, shaxsiy aloqalar muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganligini izohlashgan.

Natijalarga ko'ra, o'zbek migrantlarining etnomadaniy jihatdan integratsiyalashuvi ko'proq uyushgan bo'lib, yangi harakat strategiyasini, yangi imkoniyat yaratish qobiliyatini, evolyusion moslashish nuqtai nazaridan etnomobillikni saqlab qolish mumkinini e'tirof etish mumkin. 82,9% respondentlar fikricha, xalqlarda yangi urf-odatlarining ehtimol madaniy almashuvini, jamiyatdagi madaniy o'zgarishlar yoki globalizatsiya ta'siri ostida o'rganib olish yoxud yaratishlari mumkinligiga qo'shiladilar.

Bu ma'lumotlar asnosida, madaniy integratsiya va ijtimoiy o'zaro korrelyatsion bog'liqlik migrantlar uchun ahamiyatli hamda ular tomonidan jamiyatdagi madaniy o'zgarishlar idrok qilinishi ta'kidlanadi.

Migrantlar ishlaydigan hududlarda 49% respondent o'zbek diasporasining faoliyatiga tegishli bo'lgan madaniyat uylari, do'stlik uylari, millatlar uylaridan yangilik va axborotlardan xabari borligini bildirishgan. Bu ko'rsatkich diaspora faoliyatiga qiziqadigan va undan xabardor odamlar ko'pligini bildirib, diasporaning milliy o'ziga xosligini saqlash va ijtimoiy-madaniy integratsiya aloqa uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillarga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning deyarli yarmi o'zbek diasporasi ishiga jalb qilinganligi yoki undan xabardorligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich madaniyatlararo almashuv va yangi bilimlarga nisbatan ochiqlikni hamda migrantlar o'rtasida yumshoq milliy-innovatsiya g'oyalarni transformatsiyasini keltirib chiqaradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 96,6% respondentlarda urf-odatlarini bilish va ularga amal qilish xalqlarning o'ziga xosligini asrlar davomida saqlash uchun muhim deb hisoblaydi.

Migratsiyaning dinamik manzarasini tushunish va uning doimiy ravishda tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilayotgan ijtimoiy hamda madaniy integratsiya jarayonlariga ta'sirini baholashda evolyusion moslik – madaniy kreativlikni rag'batlantiradigan yangi hayot va harakat namunalarini yaratish uchun zarur bo'lgan madaniy majmuani shakllantirish vositasini namoyon qilmoqda.

Jamiyatga nisbatan ravon yo'nalganlik darajasi migrantning madaniy integratsiya va motivatsiyasi rag'batlantirilishi, bu jarayondan kelib chiqadigan mexanizmlar ham subyektiv identifikatsiyani kuchayishiga olib keladi. Evolyusion moslashuv jarayonida etnik kelib chiqishi, ijtimoiy mavqei, yoshi va jinsidan qat'iy nazar, uning subyektiv mohiyati jamiyat yoki guruhning faol a'zosi bo'lish, daxldorlik kabi o'z-o'zini qadrlash hissini beradi [8]. Bu holatda subyektiv farovonlik mohiyati ma'lum darajada madaniy moslashuvchanlikka ega bo'lsa, ko'proq uyg'unlik paydo bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi [9]. Etnomadaniy jihatdan rivojlangan tizimlar kelgusida migrantlar uchun madaniy integratsiya va subyektiv farovonlik samaradorligi oshirilishi nazarda tutiladi.

Xorijiy ekspertlar, etnomadaniy integratsiyaga nisbatan moslashish, ongli ravishda mavjud bo'lgan qadriyatlarining yagona izchil tizimi sifatida yanada tabaqalashtirilgan konsepsiyani taklif qiladigan tizimga o'tishni ta'kidlashmoqda. Bunday holda, madaniy integratsiya migrantlar uchun kundalik xatti-harakatlarini shakllantiruvchi qarorlarni tushunish va tuzish uchun foydalanadigan amaliy ko'nikmalar, yashirin faoliyatlari mujassamlashgan bilim va tajribalarni ijtimoiy hayotga qo'llash usuliga aylanadi.

XULOSA

Xulosa qilganda, migratsiyani etnomadaniy jihatdan o'rganish uchun integratsiya indikatorlari, ijtimoiy aloqalar, transmilliy aloqalar dinamikasi, xavfsizlik va huquqiy maqom kabi o'zaro bog'liq domenlarini, amaliyot hamda institutlar bilan o'zaro korrelyatsion bog'liqligini aniqlab, etnik konseptual modellarini ishlab chiqish mumkin.

Birinchidan, madaniy integratsiya haqidagi konsepsiyalar jamiyat yoki submadaniy darajadagi o'zaro bog'langan, izchil etnonim ma'nolar emas, balki u nisbatan kichik va mustaqil ma'lumotlar hamda turli ma'nolar sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, inkrementalistik ishlab chiqilgan siyosiy qarorlar ham baribir madaniy evolyusiyaga asoslangan bo'lib, mazkur yondashuv ko'pincha darvinizm bilan bog'liq bo'ladi, uning dolzarbligi madaniy transmissiyani evolyusion nuqtai nazardan takomillashishi, transformatsiya jarayonlariga moslashishi madaniy integratsiya ijobiy sifatlarini yaratishga olib keladi.

Uchinchidan, migrantlarning etnomadaniy rivojlanish integratsiyasi va ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasida evolyusion moslik darajasining ortib borishi, globallashuv sharoitida sotsial-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy paradigmal parametrlar transformatsiyasini etnomadaniy integratsiya jarayoni kontekstida ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Turtinchidan, til va kommunikatsiya ko'nikmalari migrantlarning jamiyatdagi muhim funksiyalaridan biri bo'lganligi sababli o'z fikrlarini bayon etishda xatti-harakatlargagina tayanib qolmay, o'zi faoliyat olib borayotgan mamlakatning tilini turli vositalar yordamida o'rganishga to'g'ri keladi va o'z madaniy resurslarini hamda o'z kapitalini yaratadi [10].

Beshinchidan, identiklikning subyektiv mohiyati tadqiqotda tahlil qilingan madaniy xulq-atvor hamda identiklikning ijtimoiy-iqtisodiy darajada namoyon bo'lishi haqidagi tushunchalari, identiklik mavqei, ijtimoiy stratifikatsiya kabi identiklikning etnomadaniy vaziyatlarini o'z ichiga oladi, bu subyektiv farovonlikka ta'sir qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. // [https:// uza.uz/oz/politics/konstitutsiya-va-onun-ustuvorligi-u-u-iy-demokratik-davlat-v-07-12-2019](https://uza.uz/oz/politics/konstitutsiya-va-onun-ustuvorligi-u-u-iy-demokratik-davlat-v-07-12-2019).
2. Swidler A. (2008) A. Culture in action: Symbols and strategies. *American Sociological Review*, 51(2), 273–286. A Swidler,. (2001). *Talk of Love: How Culture Matters* (p. 2001). University of Chicago Press.
3. Vaisey S. (2019). *From Contradiction to Coherence: Theory-Building in the Sociology of Culture*. Duke University.
4. Jens Hainmueller and Daniel J. Hopkins. *Public Attitudes Toward Immigration*.// Copyright 2014. – P.279.
5. Wang Z., Zhou B., & Horsburgh S. (2021). Cultural distance and cross-border replication of China Multinational Corporations. *Forum for Social Economics*, 50 (4). – P.363–385.
6. Bisin A., Verdier T., Patacchini E., & Zenou Y. (2008). Are Muslim immigrants diferent in terms of cultural integration? *Journal of the European Economic Association*, 6 (2/3). – P. 445-456.
7. Hendriks M., & Burger M.J. (2020). Unsuccessful subjective wellbeing assimilation among immigrants: The role of faltering perceptions of the host society. *Journal of Happiness Studies*, 21(6). – P.1985-2006.
8. Muallif tomonidan xoriyda ishlayotgan o'zbek migrantlari orasida 2022-2024-yillar davomida olib borilgan sotsial-onlayn tadqiqot natijalarining tahlili.
9. Akerlof, G. A., & Kranton, R. E. (2010). *Identity economics: How our identities shape our work, wages, and well-being*. Princeton University Press, USA. – P. 331-337.
10. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2023). Weak, Despotic, or Inclusive? How State Type Emerges from State versus Civil Society Competition. *American Political Science Review*, 117(2). – P. 407-420.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000